

4/2024,
iyul-
avgust
(№ 00072)



JISMONIY SHAXSLARDA SOLIQ QARZDORLIGI PAYDO BO'LISHI VA UNI UNDIRISH TAHLILI

Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-mail: ulajaha12@gmail.com.

ORCID: 0009-0001-1902-1763

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss4/i13

Annotatsiya

Mazkur maqolada jismoniy shaxslarda soliq qarzdorligi vujudga kelishi masalasi ko'rib chiqilgan. Shuningdek, soliq to'lovchilarda, xususan jismoniy shaxslarda soliq qarzdorligi vujudga kelishi yuzasidan xorijiy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo'yicha soliq qarzdorliklari tahlil qilingan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini qisqartirish borasida takliflar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq organi, soliq to'lovchi, jismoniy shaxs, soliq madaniyati, soliqlar va yig'imlar, mol-mulk va yer soliqlari, soliq qarzdorligi, davlat.

АНАЛИЗ ПРИЧИН ВОЗНИКНОВЕНИЯ НАЛОГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ У ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ

Хакимов Улугбек Фуркат угли

Независимый исследователь Ташкентского Ташкентский международного университета Кимё. Доктор философии (PhD) по экономическим наукам.

Аннотация

В данной статье рассмотрен вопрос налоговой ответственности физических лиц. Также были изучены мнения зарубежных экономистов относительно возникновения налоговой задолженности у налогоплательщиков, в частности у физических лиц. Проанализированы налоговые обязательства физических лиц по налогам на землю и имущество. На основании вышеизложенных обстоятельств внесены предложения по сокращению налоговой задолженности у физических лиц.

Ключевые слова: Налоговый орган, налогоплательщик, физическое лицо, налоговая культура, налоги и сборы, налоги на недвижимость и землю, налоговая задолженность, государство.

WAYS FOR FORECASTING TAX LIABILITIES IN A COUNTRY

Khakimov F. Ulugbek

Independent researcher of Kimyo International University in Tashkent. Doctor of philosophy (PhD) in economical sciences.

Abstract

This article discusses the issue of tax liability of individuals. The opinions of foreign economists regarding the occurrence of tax debt among taxpayers, in particular among individuals, were also

studied. The tax obligations of individuals for land and property taxes were analyzed. Based on the above circumstances, proposals have been made to reduce tax debt for individuals.

Key words: Tax authority, tax payers, individual, tax culture, taxes and fees, real estate and land taxes, tax debt, state.

Kirish

Soliq tizimi – bu davlatning fiskal, iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini ta’minlashning eng qadimgi vositalaridan biri hisoblanadi va unga soliq to’lovchilarning o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, doimiy ravishda o’zgarishlar, aniqlik va qo’shimchalar kiritib borish talab etiladi. Iqtisodiy munosabatlar kengayib, murakkablashib borishi, mamlakatda soliq ma’muriyatchiligini zamonaviy iqtisodiyotning voqeliklariga mos kelishini, soliqqa tortishni aniq tartibga solishni va shu bilan birga shaffof bo’lishini taqozo etadi. Jumladan, davlatimiz rahbari “Bugungi kunda dunyoda sodir bo’layotgan keskin jarayonlardan barchangiz xabardorsiz. Jahonda murakkab geosiyosiy vaziyat, energiya resurslari tanqisligi kuchayib bormoqda, oziq-ovqatga ehtiyoj ortib, moliyaviy resurslar qimmatlashmoqda. Bunday vaziyatda, qanchalik og’ir bo’lmasin, iqtisodiy islohotlarni qat’iy davom ettiramiz, ichki imkoniyatlarni to’liq safarbar qilib, xususiy sektorni yanada qo’llab-quvvatlaymiz. Buning uchun, eng avvalo, tadbirkorlik muhitini tobora yaxshilash bo’yicha islohotlarni jadallashtiramiz” – deya ta’kidladi. [1]

Darhaqiqat, iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish bu soliq islohotlarini, shu jumladan, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq turlarini unifikatsiya qilish va shu bilan birga soliqlarning belgilangan muddatida tushumini nazorat qilish hamda buning natijasida iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash demakdir. Soliq tushumlari haqida gapirar ekanmiz, avvalo soliq nazorati tadbirlari soliq organlari faoliyatidagi eng muhim funktsiya hisoblanishini ta’kidlab o’tishimiz lozim. Zero, soliq va yig’imlarni samarali va to’liq undirish va soliq qarzdorligini qisqartirish orqaligina davlat tomonidan qo’yilgan barcha maqsad va vazifalarga erishish, buning natijasida iqtisodiyot taraqqiyot yo’lida ilg’or yutuqlarni ta’minlash mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mamlakatda soliq qarzdorligi yuzaga kelishiga sabab bo’luvchi omillar va ularni qisqartirishning ayrim masalalari qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Xususan, xorijiy iqtisodchi olim Y. Yefremovning fikriga ko’ra, “Mamlakatda soliq qarzdorligi ulushining o’sishi soliq tushumlarini kamayishiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Bu esa davlat budjetidan moliyalashtiriladigan sohalarni yetarli darajada mablag’ bilan ta’minlanmay qolinishiga sabab bo’ladi. Soliq qarzdorligini yuzaga kelishi nafaqat soliq to’lovchilarning mablag’larini xalq xo’jaligi aylanmasidan chetlashishiga, balki uzoq salbiy ta’sirga ega bo’lgan og’ir ijtimoiy-iqtisodiy holatlarni keltirib chiqarib, iqtisodiyotga ta’sir etishiga, pirovardida soliq to’lovchining faoliyatiga ham og’ir oqibatlar olib kelishiga sabab bo’ladi. Qarzdorlik ishlab chiqarish jarayoniga, moddiy boyliklarning aylanishi, to’planishi va iste’moliga ta’sir ko’rsatib, aholini ijtimoiy muammolarini hal etilishida salbiy aks etadi”. [2]

Xorijiy iqtisodchi olim E. Borgnening fikricha, «Odatda soliq to’lovchilar tomonidan soliqlar hisoblanib, soliq organiga deklaratsiya taqdim etganida, ammo ular bo’yicha bajarilmagan (to’lanmagan) soliq majburiyatiga soliq qarzdorligi deb aytiladi. Bunday holatda soliq to’lovchi soliqqa oid huquqbuzarlik sodir etgan soliq to’lovchi, shuningdek hisobot topshirilib soliq majburiyati bajarilmagan yoki to’liq bajarilmagan taqdirda u soliq

to'lashdan bo'yin tovlash hamda soliq to'lovchi esa soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxs sifatida qaraladi». [3]

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq qarzdorligi tushunchasiga aniq ta'rif berilgan, ammo uning mohiyatini tushunish uchun u qanday tarkibiy qismlardan iborat ekanligini o'rganish lozim. Bu borada tadqiqot ishi olib borgan xorijiy iqtisodchi olim A. Prigovaning fikriga ko'ra, «Soliq qarzdorligi tushunchasi 3 guruhga ya'ni joriy (normal) soliq qarzdorligi, muddati o'tgan soliq qarzdorligi va shartli soliq qarzdorligiga ajratish mumkin.

Xususan, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisoblanishi, shu jumladan soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan soliq tekshiruvlari davomida soliqqa oid huquqbuzarliklar sodir etgan soliq to'lovchilarga nisbatan moliyaviy jarimalar qo'llanilishi hamda ularning soliq qonunchiligiga muvofiq belgilangan muddatda to'lanishigacha bo'lgan oraliqdagi soliq qarzdorligi joriy soliq qarzdorligi deyiladi.

Muddati o'tgan soliq qarzdorligi – bu soliqlar va yig'implarni, penya va moliyaviy jarimalarni to'lash muddati o'tgan yoki soliq organi va korxonada o'rtasida tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan soliqlarni to'lash muddati o'tgan soliq qarzdorliklari tushuniladi.

Shartli soliq qarzdorligi deganda, potensial majburiyatni ifoda etadigan ma'lum bir shartlarda real majburiyatga aylanishi mumkin bo'lgan qarzdorlik tushuniladi. Mazkur qarzdorlik o'tgan operatsiyalar natijasida yuzaga keladi hamda u kelgusidagi hodisalarga bog'liq». [4]

Bu borada ilmiy tadqiqot olib borgan xorijiy iqtisodchi olim K. Bearning fikriga ko'ra, «soliq to'lovchilarda soliq qarzdorligining paydo bo'lishiga quyidagi asosiy sabablari mavjud:

- adolatli soliq stavkalari yoki moliyaviy jarimalar yo'qligi (soliq stavkalari va jarimalar foizi juda yuqori yoki juda pastligi hamda ular har xil turdagi soliqqa oid huquqbuzarliklar jiddiyligini o'zida aks ettirmaydi);

- soliq organlarida soliq to'lovchiga tegishli ma'lumotlarni olish cheklanganligi (misol uchun banklardan);

- adolatli va yaxshi ishlab chiqilgan soliq qarzdorligini bo'lib-bo'lib to'lash tizimining yo'qligi;

- soliq organining soliq qarzlarni majburiy undirish (bank hisobraqamini to'xtatish, soliq to'lovchining debitorlariga va jismoniy shaxsning aktivlariga qaratish) vakolatiga ega emasligi hamda ushbu muhim funksiyalarni bajarishda sud organlariga qaram bo'lishi;

- soliq organining undirilishi umidsiz bo'lgan soliq qarzdorligini mustaqil ravishda hisobdan chiqarish vakolati mavjud emasligi;


- soliq to'lovchi tomonidan soliq qarzdorligini to'lash muddatini kechiktirish yo'lida sud organiga soliq organing qarori ustidan shikoyat qilishi hisoblanadi. Odatda, sud organiga shikoyat qilish, soliq to'lovchilar uchun ortiqcha xarajat talab etmaydi hamda u soliq organing soliq qarzdorligini undirish to'g'risidagi qarori ijrosini darhol to'xtatishga sabab bo'ladi. Shu asnoda, soliq to'lovchilar shikoyat berish orqali soliq organining soliq qarzdorligini qarori ijrosini osongina to'xtatib qo'yadi». [5]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma'murchiligini, xususan soliq qarzdorligini qisqartirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston soliq qonunchiligida «Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig‘imlarni to‘lashi shartligi hamda hech kimga soliqlar va yig‘imlarning ushbu Kodeksida nazarda tutilmagan soliqlar va yig‘imlarni to‘lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas» - ekanligi belgilangan. Shu bilan birgalikda, mazkur Kodeksga muvofiq, «Soliq to‘lovchilarga belgilangan soliqlar va yig‘imlarni o‘z vaqtida hamda to‘liq hajmda hisoblab chiqarishi va to‘lash majburiyati yuklatilgan». [6] Agar soliq to‘lovchilar, hisoblangan soliq va yig‘imlarni belgilangan muddatda budjetga o‘tkazib bermasa yoki to‘lashdan bo‘yin tovlasa, u holda ushbu soliq to‘lovchilarning budjet oldida soliq qarzdorligi vujudga keladi va soliq organlari tomonidan soliq qarzdorligini belgilangan tartibda undirish choralari ko‘rish ishlari boshlanadi. Jumladan, yuridik shaxslar, shu jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini undirish sxemasini quyidagi 1.8-rasm orqali ko‘rishimiz mumkin:




1-rasm. Soliq qarzdorligini undirish sxemasi [7]

Yuqoridagi rasmdan kelib chiqadigan bo‘lsak, jismoniy shaxslardan soliq qarzdorligini undirish tartibi yuridik shaxs (YTT)larda undirish tartibidan farq qiladi ya‘ni jismoniy shaxslarda soliq qarzdorligi paydo bo‘lishi bilan soliq organi tomonidan soliq qarzdorligining umumiy summasi bir million so‘mga yetmaguniga qadar ularga nisbatan hech qanday majburiy undirish choralari amalga oshirilmaydi. Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi bir million so‘mdan oshsa soliq organi sudga soliq qarzdorligini jismoniy shaxsning mol-mulki hisobidan undirish yuzasidan ariza kiritish orqali majburiy undirish ishlari boshlanadi. [8]

Jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligi asosan mol-mulk va yer soliqlaridan paydo bo‘ladi. Chunki jismoniy shaxslardan olinadigan solig‘i summalari odatda soliq agentlari tomonidan ushlab qolinib budjetga o‘tkazib berilganligi sababli, ushbu soliq turidan soliq qarzdorligi kam vujudga keladi. Shunga ko‘ra, 2019-2023-yillar davrida mol-mulk va yer

solixlaridan soliq qarzdorligi mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarni tahlilini quyidagi (2-rasm) ko‘rib chiqamiz.



2-rasm. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlari bo‘yicha yuzaga kelgan soliq qarzdorligi to‘g‘risida ma‘lumot [9]

Yuqoridagi 2-rasm ma‘lumotlaridan shuni ko‘rishimiz mumkinki, soliq to‘lovchi jismoniy shaxslar, shu jumladan mol-mulk va yer soliqlaridan soliq qarzdorligi mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarning soni hamda soliq qarzdorligi summalari o‘shish tendensiyasiga ega. 2019-yil jami mol-mulk va yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan jismoniy shaxslar soni 7 350,1 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib mazkur ko‘rsatkich 9 641,2 mingtaga yetgan. 2023-yilda

2019-yilga qaraganda 2 291,1 mingtaga yoki o‘rtacha 31,2 foizga oshgan. Respublikamizda yildan yilga mamlakatda istiqomat qiluvchi aholi sonining oshishi, ularni uy-joyga bo‘lgan ehtiyoji oshishi va buning natijasida turar (noturar) binolarning qurilishi hajmining oshishi o‘z-o‘zidan mol-mulk va yer solig‘i to‘lovchilari bo‘lgan jismoniy shaxslar sonining oshishiga olib kelishi tabiiy holdir. Shu bilan birgalikda, mol-mulk va yer soliqlaridan soliq qarzdorligi mavjud bo‘lgan jismoniy shaxslarning soni ham oshib bormoqda. Xususan, 2019-yilda 4 683,3 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda soliq qarzdorligiga ega soliq to‘lovchilar soni 7 349,1 mingtaga yetgan va bu 2019-yil bilan solishtirilganda 2 665,8 mingtaga yoki 57 foizga oshgan. So‘nggi 5 yillikda soliq qarzdorligi mavjud jismoniy shaxslar sonining o‘shish sur‘ati o‘rtacha 12,1 foizni tashkil etmoqda.

Shuningdek, jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlaridan soliq qarzdorligi summalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2019-yilda 861,5 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda ushbu summa 3 257,7 mlrd. so‘mga yetgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 2 396,2 mlrd. so‘mga yoki 278 foizga (yildan yilga soliq qarzdorligining o‘shish sur‘ati o‘rtacha 42 foiz) oshgan. Albatta yildan yilga soliq qarzdorligi summasi yuqori tezlikda oshib borishi ijobiy natija emas, ammo bu yerda mamlakatdagi inflatsiya darajasini ham inobatga olinishi lozim. O‘shanda yillar orasidagi tafovut sezilarli darajada pasayadi. Bundan tashqari, soliq qarzdorligining oshishiga aholining daromadliligi darajasi, pandemiya va soliq madaniyati kabi omillar ham ta‘sir ko‘rsatgan.

Xulosa

Yuqoridagi qayd etilganlardan kelib chiqib quyida beriladigan takliflar kelgusida jismoniy shaxslarning soliq qarzdorligini qisqartirishida ijobiy ta‘sir ko‘rsatishimi mumkin:

- jismoniy shaxslarda soliq madaniyatini yanada rivojlantirish choralari ko‘rish;

- soliq to'lovchilarning soliq organiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash maqsadida soliq tushumlarini “onlayn” kuzatish imkoniyatini yaratish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. Ефремова Е.С. Погашение недоимки за счет дебиторской задолженности налогоплательщика: нужно ли вносит изменения в законодательство?// дис. канд. экон. наук. – М., 2019 г.
3. Borgne E.L. and Bear K. Tax Amnesties: Theory, Trends, and Some Alternatives. Definition and Types of Amnesties // International Monetary Fund. – 2008. P-79.
4. А. Пригова. Налоговая задолженность в условиях несостоятельности организаций. Автореферат 2009 г.
5. Borgne E.L. and Bear K. Tax Amnesties: Theory, Trends, and Some Alternatives. Definition and Types of Amnesties // International Monetary Fund. – 2008. P-79.
6. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 22-moddasi. <https://lex.uz/docs/4674902>
7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi normlaridan kelib chiqib muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.
8. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 125-moddasi. <https://lex.uz/docs/4674902>
9. U.F. Hakimov. Soliq qarzini undirish amaliyoti va uni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati 2023-yil.